



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI  
BUYRUQ**

20<sup>23</sup>-yil “ 18 ” avgust

149-son

Toshkent shahri

**O'zbekiston Respublikasi  
Kambag'allikni qisqartirish va  
bandlik vazirligida markazlashgan  
davlat xaridlarini amalga oshirish  
jarayonini tartibga solish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 2022-yil 20-maydagি 276-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlaring samarad orligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” 2022-yil 12-yanvarda PQ-81-son qarori talablariga muvofiq,

**BUYURAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligida Davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida korruption holatlar yuzaga kelishi va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, tashkil etiladigan davlat xaridlarini o'tkazish jarayonlarini ochiqlik va shaffoflik prinsiplariga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida:

davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha xarid komissiyasi tarkiblari 1-ilovaga, 2-ilovaga, 3-ilovaga, 4-ilovaga;

davlat xaridlarini amalga oshirish doirasida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini tekshirish jarayoni bo'yicha yo'riqnomalar 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Xarid komissiyasining asosiy vazifasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining markaziy apparati, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi, Jamoat ishlari jamg'armasi, Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg'armasi, Obod va xavfsiz mahalla jamg'armasi, Hunarmandchilik va

kasanchilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan markazlashgan xaridlarni ko'rib chiqish, xolis baholash hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali g'olibni tanlashdan iborat.

**3.** Uch kun muddatda Davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha xarid komissiyasi a'zolari o'zining shaxsiy "Elektron imzo" kaliti bilan xarid.uzex.uz dasturi orqali ro'yxatdan o'tsin.

**4.** Komplayens nazorat bo'limi (D.Temirov) xarid ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan takliflarini baholash jarayonida xarid tartib taomillariga asosan manfaatlar to'qnashuvini va ishtirokchilari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, hujjatlar taqdim etilgandan so'ng uch ish kunida xulosani Xarid komissiyasi Ishchi guruhiga taqdim etsin.

**5.** O'zbekiston Respublikasi Kambag'alikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 12-iyundagi 101-sod buyrug'i ilovasi o'z kuchini yo'qtgan deb hisoblansin.

**6.** Mazkur buyruqni ijrosini nazorat qilish vazir o'rinnbosari E. Muhitdinov zimmasiga yuklansin.



O'zbekiston Respublikasi  
Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining  
2023-yil "\_\_\_" \_\_\_\_ dagi \_\_\_\_-son buyrug'iga  
1-ilova

**Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining markaziy apparati, Bandlikka  
ko'maklashish davlat jamg'armasi, Obod va xavfsiz mahalla jamg'armasi,  
Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan amalga  
oshiriladigan davlat xaridlar bo'yicha  
xarid komissiyasi  
T A R K I B I**

1.	R.Turdiboyeva	Vazir o'rinosbosari - Komissiya raisi
2.	N.Musaev	Mahalla institutini rivojlantirish departamenti direktori - komissiya a'zosi
3.	S.Raxmonov	Kambag'allikni qisqartirish, hokim yordamchilari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi
4.	Sh. Amanov	Kasbga o'qitish va malaka tizimini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i - komissiya a'zosi
5.	S. Maksudov	Moliya – iqtisod boshqarmasi boshlig'i komissiya a'zosi
6.	B.Xolmuradov	Xaridlar va moddiy texnik bazani mustahkamlash va DXSHni rivojlantirish bo'limi boshlig'i - komissiya a'zosi
7.	A.Abdukarimov	Yuridik ta'minlash bo'limi boshlig'i komissiya a'zosi
	<i>Lavozim bo'yicha</i>	Xaridlar va moddiy texnik bazani mustahkamlash va DXSHni rivojlantirish bo'limi bosh mutaxassis-i- Xarid komissiyasi mas'ul kotibi

*Izoh: Komissiyaning a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga  
yangi tayinlangan shaxslar kiritiladi.*